

## KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY YORDAM

**Davlatova Madinabegim Muzaffar qizi**

*“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqola kambag'allikning asosiy sabablari, uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatları, shuningdek, kambag'allikni kamaytirishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Ta'lim, iqtisodiy o'sish, ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy himoya tizimlari, mikroqarzarlar va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash kabi sohalarida amalga oshiriladigan siyosatlar kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Maqola shuningdek, ijtimoiy yordam tizimining samaradorligi ahamiyatini yoritadi.*

Kambag'allik — bu jamiyatning eng jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri bo'lib, uning natijasida millionlab odamlar hayotning asosiy ehtiyojlarini ta'minlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Dunyo miqyosida kambag'allikni qisqartirish bir qancha xalqaro tashkilotlar, hukumatlar va ijtimoiy tadqiqotchilar tomonidan diqqat bilan kuzatiladi. Kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy yordam tizimlarini yaxshilash nafaqat iqtisodiy taraqqiyotning muhim elementi, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash va jamiyatdagi tenglikni oshirishning asosi sifatida qaraladi.

Har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag'allikni qisqartirish bosqichidan o'tadi. Mamlakatimiz uchun, xususan, absolyut kambag'allik konsepsiyasi asosida kambag'allar soni, holatini aniqlashda turli xil fikrlar, qarama-qarshi yondashuvlar mavjud. Misol uchun, rasmiy manbalarga tayanib, ma'lumot berar ekanmiz, kambag'allar soni umumiy aholining 13-15 %ini tashkil etishi taxmin qilinadi. Lekin aholini o'zini-o'zi baholashidan bilish mumkinki, faktlar aniq va shaffof emas. Ya'ni ayrim aholi toifalari moddiy ta'minlanganlik jihatidan o'zlarini kambag'al hisoblasa, ayrimlari ayni shunday moddiy ta'minlanganlik jihatidan o'zlarini kambag'al hisoblamaydilar. Shuning uchun mamlakatimizdagi kambag'allik holati ko'p qirralik holat va uning tarqalish mashtabi turlicha qabul qilingan. Bu muammoga turli qarashlar tufayli aniq siyosatni belgilash hamda kurashish mexanizmining yo'qligidir. Yurtimizda 2020-yilda aholining muayyan qismi kambag'al ekanini tan olib, ularga madad berishga kirishdi. Moliyaviy-tashkiliy choralar ko'rilib, tizim joriy qilindi. Bu o'z samarasini berib, uzoq yillar



og'ir vaziyatda bo'lgan 3 milliondan ziyod odamlarning sharoiti yaxshilandi. Kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi.

Kelgusi uch yilda kambag'allik darajasini 11 foizdan 7 foizga qisqartirish maqsad qilingan. Hozirgacha bo'lgan tizim bilan natijadorlikni oshirish qiyin. Kambag'al oilani tanlashda aniqlik, ularni bu holatdan olib chiqish va mablag' ajratishda yaxlitlik yetishmaydi. Shuning uchun ham quyidagi kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlarini muhim deb belgilasak bo'ladi:

#### 1. Iqtisodiy rivojlanish va ish o'rinlari yaratish

Kambag'allikni qisqartirish uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlash juda muhimdir. Iqtisodiy rivojlanish, xususan, ish o'rinlarini yaratish orqali, odamlarning daromadlarini oshiradi va ularga o'z hayotlarini yaxshilash imkoniyatini yaratadi. Davlatlar va xususiy sektorlar yangi texnologiyalarni joriy qilish, sanoatni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish kabi chora-tadbirlar orqali ish o'rinlarini yaratishga intilishlari lozim.

#### 2. Ta'lim va malaka oshirish dasturlari

Kambag'allikni qisqartirishda ta'limning o'rnini beqiyosdir. Yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatlari kambag'allikni kamaytirishning eng samarali vositasidir. Ta'lim, ayniqsa, yuqori malakali ishchilarni tayyorlash orqali iqtisodiy o'sishning asosini tashkil etadi. Shuningdek, kambag'allikka qarshi kurashishda malaka oshirish va kasb-hunar kurslari ham muhim ahamiyatga ega.

#### 3. Ijtimoiy himoya tizimlari

Ijtimoiy yordam dasturlari kambag'allikka qarshi kurashishda asosiy vosita hisoblanadi. Ijtimoiy yordam tizimlari odamlarning asosiy ehtiyojlarini qondirishga, tibbiy yordam, ta'lim, uy-joy va boshqa zarur xizmatlar bilan ta'minlashga qaratilgan. Misol uchun, universal sog'liqni saqlash tizimi, bolalar uchun bepul ta'lim, nafaqalar va pensiyalar kabi dasturlar kambag'allikni qisqartirishga yordam beradi.

#### 4. Progressiv soliq tizimi

Soliq tizimining progressiv bo'lishi kambag'allikka qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Boylarning ko'proq soliq to'lashini ta'minlash orqali kambag'allarga yordam ko'rsatish uchun moliyaviy manbalarni yig'ish mumkin. Soliqdan tushgan mablag'lar ijtimoiy himoya dasturlari va kambag'allikka qarshi boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

#### 5. Mikroqarzarlar va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash



Mikroqarzarlar va kichik bizneslarni rivojlantirish kambag'allikka qarshi kurashishning samarali usuli hisoblanadi. Kambag'allikning yuqori darajalari ko'pincha xususiy biznesni boshlash uchun zarur bo'lgan resurslarning yetishmasligi bilan bog'liq. Mikroqarzarlar dasturi orqali kambag'al qatlamlarga kichik biznes boshlash imkoniyatlari yaratish, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi.

Bundan tashqari ijtimoiy yordam tizimining samaradorligi uning maqsadga muvofiqligiga, resurslarni adolatli taqsimlashga va xalqaro standartlarga javob berishiga bog'liq. Samarali ijtimoiy yordam tizimi quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- Davlat tomonidan doimiy va barqaror moliyalashtirish.
- Ma'lumotlar va monitoring tizimi orqali yordamning samaradorligini baholash.
- Tegishli tizimlar va xizmatlar orqali ijtimoiy yordamni adolatli taqsimlash.

Kambag'allikka qarshi kurash va ijtimoiy yordam tizimlarini rivojlantirish nafaqat kambag'allikni qisqartirish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Samarali siyosat, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy himoya tizimlarining uyg'unlashuvi qashshoqlikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir davlat o'z sharoitlariga mos keladigan siyosatlarni ishlab chiqib, aholi qatlamlarini ijtimoiy yordam bilan ta'minlash orqali qashshoqlikka qarshi samarali kurash olib borishi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi. 25.01.2020-y.
2. R.Xasanov, B.Usmonov O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari – <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambag'allik-va-uni-qisqartirish-yollari>
3. Z.E.Suyarov KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH DASTURINING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021
4. Amrulloev, D. N., and R. X. Alimova. "KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH ORQALI FAROVONLIKNI OSHIRISH: IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR." XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI 1.1 (2024): 417-421.

